



## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI O'QISH DARSLARIDA BOG'LANISHLI NUTQINI RIVOJLANTIRISH

*Abduraxmonova Gulasal Ravshanovna*

*NamDPI "Boshlang'ich ta'lism innovatsiyalari" kafedrasini o'qituvchisi  
[gulasalabdurahmonova50@gmail.com](mailto:gulasalabdurahmonova50@gmail.com) +99899 694 01 87*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish darslari jarayonida bog'lanishli nutqini rivojlanirish masalasi yoritilgan. O'quvchilarining izchil va mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish uchun samarali usullar taklif etilgan. Xususan, matnni qayta hikoya qilish, savol-javob usuli, rolli o'yinlar, guruhli ishlash va ijodiy topshiriqlardan foydalanishning ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada bog'lanishli nutqni rivojlanirishning o'quvchilarining muloqot madaniyati va tafakkurini kengaytirishdagi o'rni ham yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, o'qish darslari, bog'lanishli nutq, matnni qayta hikoya qilish, savol-javob usuli, rolli o'yinlar, ijodiy topshiriqlar, o'quvchilarining nutqiy rivojlanishi, mantiqiy fikrlash.

## РАЗВИТИЕ СВЯЗНОЙ РЕЧИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА УРОКАХ ЧТЕНИЯ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается вопрос развития связной речи учащихся начальных классов в процессе уроков чтения. Предложены эффективные методы формирования у учащихся навыков последовательного и логического рассуждения. В частности, анализируется значение пересказа текста, метода вопрос-ответ, ролевых игр, групповой работы и творческих заданий. В статье также освещена роль развития связной речи в расширении коммуникативной культуры и мышления учащихся.

**Ключевые слова:** начальные классы, уроки чтения, связная речь, пересказ текста, метод вопрос-ответ, ролевые игры, творческие задания, речевое развитие учащихся, логическое мышление.

## DEVELOPING CONNECTED SPEECH OF PRIMARY STUDENTS IN READING LESSONS

**Annotation.** This article discusses the development of coherent speech in primary school students during reading lessons. Effective methods for forming students' skills in logical and sequential reasoning are proposed. In particular, the importance of text retelling, the question-and-answer method, role-playing games, group work, and creative tasks is analyzed. The article also highlights the role of coherent speech development in expanding students' communication culture and thinking.



**Keywords:** primary school, reading lessons, coherent speech, text retelling, question-and-answer method, role-playing games, creative tasks, students' speech development, logical thinking.

## KIRISH

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘qish darslari nafaqat matnlarni o‘qish va ularni tushunish bilan cheklanmay, balki bolalarning bog‘lanishli nutqini shakllantirish va rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar matn mazmunini tushunish jarayonida o‘z fikrlarini mantiqiy va izchil ifodalashni o‘rganadilar, bu esa ularning kelajakdagi muloqot qobiliyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bog‘lanishli nutq – o‘quvchilarning fikrlarini tartibli, tushunarli va mantiqiy ketma-ketlikda ifoda eta olish qobiliyatidir. Bu ko‘nikma o‘quvchilarning nafaqat dars jarayonida, balki kundalik hayotda ham o‘z fikrlarini aniq va ravon bayon qilishiga yordam beradi [7]. O‘qish darslarida nutq rivojlantirishga qaratilgan turli metod va usullardan foydalanish, o‘quvchilarning tafakkurini kengaytirib, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Boshlang‘ich sinflarda bog‘lanishli nutqni rivojlantirish uchun o‘qituvchilar o‘quvchilarga matnni qayta hikoya qilish, savol-javob usuli orqali tahlil qilish, rolli o‘yinlar, juftlik va guruhda ishlash kabi samarali metodlarni qo‘llaydilar. Ushbu yondashuvlar nafaqat o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirish, balki ularning eslab qolish qobiliyatini ham mustahkamlashga xizmat qiladi. Matn asosida mustaqil fikr yuritish, qahramonlar harakatlarini baholash va shaxsiy munosabat bildirish orqali o‘quvchilar tahliliy va tanqidiy fikrlashni o‘rganadilar. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bog‘lanishli nutqini o‘qish darslari orqali rivojlantirishning ahamiyati va bu jarayonda qo‘llaniladigan samarali usullar haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, turli metodlarning o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytirish, nutq madaniyatini shakllantirish va muloqotga bo‘lgan ishchonchini oshirishdagi o‘rni tahlil qilinadi.

## ADABIYOTLAR TAHЛИILI VA METODOLOGIYA

Bog‘lanishli nutqning rivojlanishi insonning o‘z fikrlarini aniq va tushunarli bayon qilishiga yordam beradi. Ayniqsa, bolalar uchun bu jarayon muhim bo‘lib, ularning tafakkuri va muloqot qobiliyatining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bog‘lanishli nutq rivojlangan bolalar matn mazmunini yaxshiroq tushunadi va uni



qayta hikoya qilish qobiliyatiga ega bo'ldi. Shuningdek, ular o'z fikrlarini mantiqiy ketma-ketlikda ifodalash imkoniyatiga ega bo'lib, yozma nutq madaniyati ham rivojlanadi[9]. Bunday bolalar ijtimoiy muhitda o'z fikrlarini ravon ifoda eta oladilar, bu esa ularning shaxs sifatida o'sishiga va jamiyatda muvaffaqiyatli muloqot qilishiga yordam beradi. O'quvchilarning nutqini rivojlantirishda o'qish darslarining o'rni juda katta. Bu jarayonda turli metodlar va matn ustida ishlash usullari qo'llaniladi. O'qish darslari nafaqat ma'lumot olish vositasi, balki nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni hamdir. O'quvchilar matn mazmunini tushunib, uni qayta so'zlash orqali so'z boyligini oshiradilar va nutq madaniyatini shakllantiradilar. Shuningdek, har bir o'quvchi uchun individual yondashuv qo'llanilganda, ularning qiziqishlari va qobiliyatlariga mos keladigan usullar tanlanadi. Bu esa ularning o'z fikrlarini mustaqil va mantiqiy bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Matn ustida ishlash jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga tushunarsiz so'zlarni izohlash, asosiy fikrlarni ajratish va matnni mustaqil tahlil qilish kabi vazifalarni bajarishga yo'naltiradi. Bu esa bolalarning fikrlash qobiliyatini kengaytirib, mantiqiy va izchil gapirishga o'rgatadi. Bundan tashqari, bahs-munozaralar, matn asosida savol-javob usullari, rolli o'yinlar va ijodiy yozuv mashqlari ham bog'lanishli nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi[3]. Bog'lanishli nutqning rivojlanishi nafaqat o'quv jarayonida, balki hayotning turli jabhalarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yaxshi rivojlangan nutq muloqotda ishonchni oshirib, shaxsning o'z fikrlarini samarali ifoda etishiga yordam beradi. Shu sababli, ta'lim jarayonida bolalarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O'qish darslarida bog'lanishli nutqni rivojlantirish o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda turli usullar qo'llanilib, o'quvchilarning so'z boyligi kengayadi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi va nutq izchilligi mustahkamlanadi. O'qituvchilar o'quvchilarning bog'lanishli nutqini rivojlantirish uchun bir qancha samarali metodlardan foydalanishlari mumkin. Matnni qayta hikoya qilish usuli o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Bu usul yordamida ular o'qilgan matnni mustaqil ravishda yoki



o'qituvchi yo'nalishiga asoslangan holda qayta hikoya qilishga o'rganadilar[6]. Bunday mashqlar o'quvchilarning fikrlarini mantiqiy va ketma-ket ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirib, ularning eslab qolish qobiliyatini ham oshiradi. Matnni qayta hikoya qilish jarayonida asosiy voqealarni ajratib ko'rsatish, qahramonlarning harakatlarini izohlash va matnga nisbatan shaxsiy fikr bildirish ko'nikmalari shakllanadi. Savol-javob usuli o'quvchilarning matn mazmunini yanada chuqurroq anglashlariga va nutq madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi. O'qituvchi matn asosida turli savollar berib, o'quvchilarni javoblarni izchil va aniq shakllantirishga undaydi[8]. Masalan, matndagi asosiy qahramon kim ekanligi, u qanday qiyinchiliklarga duch kelgani yoki o'quvchining o'zi shu vaziyatda qanday yo'l tutishi mumkinligi haqida savollar berish orqali ularning tanqidiy fikrlash qobiliyati oshiriladi. Bu metod o'quvchilarni faol fikrlashga undaydi va ularning mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Rolli o'yinlar va dramatizatsiya metodi o'quvchilarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishda eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Ushbu metod orqali bolalar hikoyalardagi qahramonlar roliga kirib, ularning so'zlash uslubini va harakatlarini taqlid qiladilar. Natijada, ular o'z fikrlarini erkin va ravon ifodalashni o'rganadilar, nutq boyligi ortadi va ijodiy tafakkuri rivojlanadi. Dramatizatsiya jarayonida o'quvchilar turli sahnalarni jonlantirib, o'zlarining his-tuyg'ularini nutq orqali ifodalashga intiladilar. Juftlik va guruhli ishlash metodi ham bog'lanishli nutqni shakllantirishda samarali usullardan biri hisoblanadi. O'quvchilar kichik guruhlarga yoki juftliklarga bo'linib, matn asosida suhbatlashadilar, o'zaro savollar beradilar va fikr almashadilar. Bu usul ularning fikrlarini izchil ifodalashiga, muloqot jarayonida o'zlarini erkin his qilishiga va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Guruhli ish jarayonida o'quvchilar jamoa bilan ishlashni o'rganib, o'z fikrlarini aniq va tushunarli tarzda bayon qilishga intiladilar. Ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirishga va ularning bog'lanishli nutqini rivojlantirishga yordam beradi. Bunday topshiriqlarga matnning davomini mustaqil yozish, qahramonlar nomidan xat yozish yoki hikoyaga muqobil yakun o'ylab topish kabi mashqlar kiradi. Ushbu topshiriqlar orqali o'quvchilar nafaqat matnni chuqur tahlil qilishga, balki o'zlarining ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ham o'rganadilar. Tasviriy

vositalardan foydalanish ham bog'lanishli nutqni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Rasmlı kitoblar, multfilmlar va videolavhalardan foydalanish o'quvchilarning vizual idrokini rivojlantirib, ularga matnni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Tasviriy materiallar orqali o'quvchilar o'qilgan matnni tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar va voqealarni o'z so'zlari bilan hikoya qilishga o'rganadilar. Bu metod ayniqsa yosh bolalar uchun juda foydali bo'lib, ularning nutqiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bog'lanishli nutqni rivojlantirish uchun o'qituvchilar tomonidan qo'llaniladigan ushbu usullar o'quvchilarning muloqot qobiliyatini shakllantirishga, so'z boyligini kengaytirishga va ularga mustaqil fikrlash ko'nikmalarini singdirishga xizmat qiladi. Shu sababli, o'qish darslarida ushbu metodlardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Og'zaki va yozma nutqni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

#### Og'zaki nutqni shakllantirish metodlari:

**Suhbat (dialog usuli)** – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtaida yoki o'quvchilar o'zaro fikr almashib, mantiqiy fikrlash va nutqiy malakalarni rivojlantiradilar.

**Hikoya qilish** – muayyan mavzuda batafsil va mantiqiy izchillikda so'zlab berish orqali nutq ko'nikmalari shakllanadi.


**Tushuntirish (izohlash)** – o'quvchilarga yangi tushunchalarni aniq, lo'nda va ravshan qilib tushuntirish orqali og'zaki nutq rivojlantiriladi.

**Rolli o'yinlar** – o'quvchilar berilgan vaziyatga mos dialog yoki monolog qurish orqali nutq malakasini rivojlantiradilar.

**Matn qayta hikoya qilish** – berilgan matn mazmunini o'z so'zlari bilan bayon qilish.

**Munozara (debate)** – o'quvchilar ma'lum masala bo'yicha o'z fikrlarini asoslab himoya qilish orqali nutqiy kompetensiyalarni rivojlantiradilar.

#### Yozma nutqni shakllantirish metodlari:



## XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bog'lanishli nutqini rivojlantirish o'qish darslarining muhim vazifalaridan biridir. O'qituvchilar turli metodlardan foydalangan holda bolalarning og'zaki va yozma nutqini shakllantirishlari lozim. Matnlarni o'qish, qayta hikoya qilish, savol-javoblar, rolli o'yinlar va ijodiy topshiriqlar o'quvchilarining fikrlash doirasini kengaytiradi, mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi va ularni nutqiy jihatdan faol shaxs sifatida tarbiyalaydi. Shu sababli, o'qish darslarini rejalashtirishda bog'lanishli nutqni shakllantirishga alohida e'tibor berish lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akramova M., Yo'ldoshev U. "**Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini shakllantirish**" – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Rasulova D. "**O'qish darslarida innovatsion metodlardan foydalanish**" – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
3. Hasanboyeva O. "**Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirish usullari**" – Toshkent: Istiqlol, 2020.
4. Karimova G. "**Nutq madaniyati va uni shakllantirish metodikasi**" – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2018.
5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. "**Boshlang'ich ta'lim standarti**" – Toshkent, 2022.
6. Abduraxmonova Gulusal Ravshanovna. (2024). O'qish darslari orqali o'quvchilarining bog'lanishli nutqini rivojlantiruvchi texnologiyalar. Proceedings of International Conference



on Educational Discoveries and Humanities, 3(2), 40–46. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/icedh/article/view/3676>

7. Abduraxmonova Gulasal Ravshanovna. (2024). Ona tili-o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning bog'lanishli nutqini rivojlantirish. "PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA" xalqaro ilmiy-metodik jurnal. №7(15) 2024., 156-159 betlar.
8. Abduraxmonova Gulasal Ravshanovna, G'ayratliyeva Ruxshona Mirzohid qizi. Bog'lanishli nutqning ta'lif samaradorligini oshirishda va o'quvchi shaxsini rivojlantirishdagi ahamiyati. 23-yanvar\_2025-yil, 85-90 betlar. <https://scientific-jl.org/tal/issue/view/245>
9. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) – Ta'limga oid ilmiy-metodik materiallar.
10. [www.edu.uz](http://www.edu.uz) – O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining rasmiy veb-sayti.